

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI  
KAFEDRASI O‘QITUVCHISI  
JO‘RAYEV SIROJBEK O‘ROL O‘g‘li  
KOMPYUTER SAVODXONLIGI**

**TO‘GARAK  
ISH REJASI**



**Denov-2025 yil**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
“Axborot texnologiyalari  
kafedrasi mudiri: \_\_\_\_\_  
R.Mamajanov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2025-yil

**Informatika fani o‘qituvchisi**  
**S. JO'RAYEV**  
**HAFTANING**  
**SESHANBA, PAYSHANBA, SOAT 16:00 da**

**“KOMPYUTER SAVODXONLIGI”**

**TO‘GARAGI**

**ISH REJASI.**

## **Kirish**

Mazkur ish reja Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalarida kompyuter savodxonligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda kompyuter bilan tanishuv, windows muhitida dastlabki qadamlar, kompyuter grafikasi, ma’lumotlarni saqlash vositalari, kompyuterning dasturiy ta’minoti, kompyuterda hujjat tayyorlash, word matn muharriri, elektron jadval dasturlari, taqdimot dasturlari, internet tarmog‘i va uning xizmatlari, elektron pochta bilan ishlash o‘rgatadi. Shu bilan birgalikda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy metodlardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

**“Kompyuter savodxonligi”** to‘garagi talabalar taklifi bilan tashkil qilingan bo‘lib, uning a‘zolari sifatida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tahsil olayotgan talaba yoshlar o‘z xohishlariga ko‘ra qamrab olingan. Mazkur to‘garak a‘zolarining amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.

### **To‘garaklarning asosiy maqsadi:**

- talabalarga har bir kasb egasi uning faoliyat ko‘rsatish turidan qat’iy nazar egallashi kerak bo‘lgan tayanch nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.
- zamonaviy axborot texnologiyalari asoslari, zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning qurilmalari, sistemali dasturiy ta’minoti, amaliy dasturlarini bilish;
- talaba yoshlarning qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to‘liq safarbar etish;
- talabalarni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda axborot texnologiyalari taqdirini hal eta oladigan yuksak ma’naviyatli, global fikrlaydigan, global mutasaddilik va global kasbiy mahorati shakllangan oliy ma’lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- iste’dodli yoshlarning kompyuter savodxonligi va ko‘nikmasini oshirish;
- yangilanayotgan zamonaviy – so‘ngi avlod kompyuter dasturlari bilan ishlash, berilgan mashqlarni, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish;

### **To‘garakning vazifalari:**

- talabalarda kompyuter ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalar o‘z ilmiy qarashlari va nuqtayi nazarlarini ilmiy-uslubiy tilda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish;
- talabalarda ilmiy-ijodiy mushohada qila olish ko‘nikmalari shakllantirish;
- talabalarni dars jarayonlarida yangi texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish;

- universitet fanlarida berilgan topshiriqlarni mavjud kompyuter dasturlarida tahlil qilish borasida yangi, zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirib borish;

### **To'garak bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

**“Kompyuter savodxonligi”** amaliy to'garagini o'zlashtirish jarayonida talabalar quyidagi tushunchalar, ularning mohiyatiga oid nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishlari zarur: kompyuter bilan tanishuv, windows muhitida dastlabki qadamlar, kompyuter grafikasi, ma'lumotlarni saqlash vositalari, kompyuterning dasturiy ta'minoti, kompyuterda hujjat tayyorlash, word matn muharriri, elektron jadval dasturlari, taqdimot dasturlari, internet tarmog'i va uning xizmatlari, elektron pochta bilan ishlash.

### **“Kompyuter savodxonligi” to'garagi tinglovchilari quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallab boradi:**

- texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari bilan tanishish;
- kompyuterning asosiy va qo'shimcha qismlari, ularning vazifalari bilan tanishish;
- ma'lumotlarni saqlash vositalari bilan ishlash;
- kompyuterning dasturiy ta'minoti bilan tanishish;
- kompyuterlarning takomillashuvi;
- kompyuterda hujjat tayyorlash;
- elektron jadval dasturlari;
- taqdimot dasturi...

### **“Kompyuter savodxonligi” to'garagining faoliyati quyidagi qoidalarga asoslanadi:**

◆ To'garak o'quv yili davomida o'z faoliyatini olib boradi, yangi o'quv yilida kafedra qarori asosida to'garak qaytadan o'z faoliyatini boshlashi, nomini va yo'nalishini almashtirishi mumkin;

◆ To'garak kafedra tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur asosida o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi;

◆ “Kompyuter savodxonligi” to'garagi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti RIMda faoliyat yuritadi;

◆ To'garak mashg'ulotlari kafedrada “Java”, “Dasturlash”, “Operatsion tizimlar”, “Informatikaning nazariy asoslari”, “Mediya savodxonligi”, “Intelektual tizimlar va robotexnika” va “Muhandslik va kompyuter grafikasi” fanlaridan dars o'tuvchi o'qituvchilar tomonidan olib boriladi, kafedraning boshqa a'zolari o'zlarining metodik maslahatlari va o'quv materiallari bilan amaliy yordam berishlari mumkin;

♦ To'garak a'zolari mashg'ulot o'tkazuvchi o'qituvchidan qoniqmasalar, bu haqda kafedra mudiriga uni almashtirish taklifi bilan murojaat qilishlari mumkin;

♦ To'garak a'zolari iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, Amaliy matematika, biologiya va maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan, akadem guruhlarda o'zlarining iste'dodlarini namoyon qilgan talabalardan tashkil topadi;

♦ To'garak a'zolari kafedra tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida mashg'ulotlarga muntazam ishtirok etishlari talab qilinadi;

♦ A'zolar mashg'ulotlar davomida berilgan nazariy va amaliy bilimlarni sabot bilan egallashlari, amaliyot davomida o'zlarining chuqur bilimlarini namoyish qila olishlari lozim;

♦ To'garak ishi o'zaro hurmat, qat'iy tartib-intizomga asoslanadi.

## To'garak mavzulari rejasi.

| №                                               | Mavzular nomi                                                             | Soatl<br>ar<br>hajmi | Uyga berilgan<br>topshiriq       | Adabiyotlar | Dars<br>o'tilgan<br>sana |
|-------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------------------|-------------|--------------------------|
| <b>Kirish va boshlang'ich tushunchalar</b>      |                                                                           |                      |                                  |             |                          |
| 1.                                              | Kompyuter savodxonligi tushunchasi va uning ahamiyati                     | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 2.                                              | Kompyuter qurilmalari: asosiy va qo'shimcha qismlar                       | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 3.                                              | Operatsion tizim tushunchasi va Windows interfeysi bilan tanishish        | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 4.                                              | Fayl va papkalar bilan ishlash (yaratish, nomlash, ko'chirish, o'chirish) | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| <b>Dasturiy vositalar va amaliy ko'nikmalar</b> |                                                                           |                      |                                  |             |                          |
| 5.                                              | Ofis dasturlari bilan tanishish (Word, Excel, PowerPoint)                 | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 6.                                              | Word dasturida matn terish va formatlash asoslari                         | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 7.                                              | Excel dasturida oddiy hisoblash va jadvallar tuzish                       | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| 8.                                              | PowerPoint dasturida taqdimot tayyorlash                                  | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |
| <b>Internet va axborot texnologiyalari</b>      |                                                                           |                      |                                  |             |                          |
| 9.                                              | Internet tarmog'i: qidiruv tizimlari va samarali foydalanish              | 2                    | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |             |                          |

|                                     |                                                                             |   |                                  |  |  |
|-------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|---|----------------------------------|--|--|
| 10.                                 | Elektron pochta yaratish va undan foydalanish qoidalar                      | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 11.                                 | Internet madaniyati va xavfsizligi (axborot xavfsizligi asoslari)           | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 12.                                 | Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish                                   | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| <b>Ilmiy va amaliy qo'llanmalar</b> |                                                                             |   |                                  |  |  |
| 13.                                 | Dasturlash haqida boshlang'ich tushunchalar (Scratch, Python)               | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 14.                                 | Multimediali ilovalar: Paint va boshqa grafik dasturlar                     | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 15.                                 | Kompyuter o'yinlari va ta'limiy dasturlar (foydali va zararli tomonlari)    | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 16.                                 | Amaliy loyiha: "Kompyuter savodxonligi" bo'yicha kichik taqdimot tayyorlash | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| <b>Yakuniy bosqich</b>              |                                                                             |   |                                  |  |  |
| 17.                                 | Kompyuter viruslari va ularni oldini olish choralar                         | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 18.                                 | Kompyuterdan foydalanishda texnika xavfsizligi                              | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 19.                                 | O'z-o'zini rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish imkoniyatlari          | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |
| 20.                                 | Yakuniy musobaqa: "Eng bilimdon kompyuterchi" viktorinasi                   | 2 | Amaliy topshiriqni uyda bajaring |  |  |

**To'garak rahbari:**

**S. Jo'rayev**